

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA MONITORING QILISH ISTIQBOLLARI

Andijon viloyati Izboskan tumani
2-son DMTT direktor o'rinbosari
Abdullaeva Feruzaxon Ibragimovna

Annotatsiya. Bu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan o'zgarishlar, islohotlar va innovatsion yondashuvlar va ta'lin samaradotligini oshirish va monitoring qilish haqida aytib o'tilgan. Bundan tashqari ta'limda pedadog tarbiyachi, muallimlarning o'rni samarali ta'lim tizimi tajribasi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Аннотация. В данной статье говорится об изменениях, реформах и инновационных подходах в системе дошкольного образования и повышении эффективности образования. Кроме того, о роли педагогов и учителей в образовании дается информация об опыте эффективной системы образования.

Abstract. This article talks about the changes, reforms and innovative approaches in the preschool education system and improving the effectiveness of education. In addition, the role of pedagogues and teachers in education is given information about the experience of an effective educational system.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, samaradorlik, bolalar, pedagog tarbiyachi, ta'lim jarayonlari, O'yin kompetensiyasi, bilish kompetensiyasi, o'yinli mashg'ulotlar.

Ключевые слова: образовательная система, эффективность, дети, педагог, образовательный процесс, Игровая компетентность, познавательная компетентность, игровая деятельность.

Key words: educational system, efficiency, children, pedagogue, educational processes, Game competence, cognitive competence, game activities.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan nafaqat mamlakatimiz, balki, butun dunyo hamjamiyati e'tibori ham yoshlar ta'lim-tarbiyasi, ma'naviyati va huquqlari himoyasiga qaratilib, Yoshlar huquqlari to'g'risidagi BMT konventsiyasini qabul qilish taklifi ilgari surilgani katta ahamiyatga ega. Prezidentimiz tomonidan kelajak avlod tarbiyasiga berilayotgan katta e'tibor ta'lim tizimi va pedagoglar zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Bu vazifalarni amalga oshirish chuqur bilim va katta mahoratni talab etadi. Ta'lim tizimiga yangiliklarni olib kirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish bugungi kun ta'limi oldiga qo'yilgan muhim vazifalardir.

Maktabgacha ta'lim tizimi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida muhim bosqichni tashkil etadi. Ta'lim jarayonining samaradorligi esa bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, ularni maktabga tayyorlash bilan bevosita bog'liq. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifatini baholash va monitoring qilish tizimi pedagogik jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi. Samaradorlikni baholash va monitoring tizimi orqali direktorlar va o'rinbosarlar o'quv jarayonining holatini, pedagoglarning faoliyatini, bolalarning rivojlanish darajasini doimiy kuzatib boradilar. Bu esa o'z navbatida ta'lim sifatini oshirish va zarur chora-tadbirlarni belgilash imkonini yaratadi.

Monitoring tizimining asosiy yo'nalishlari

1. Ta'lim jarayonini kuzatish – pedagogik mashg'ulotlar sifati, bolalarning faol ishtiroki va qiziqishlari monitoring qilinadi.
2. Natijalarni tahlil qilish – bolalarning rivojlanish darajasi va o'quv ko'rsatkichlari baholanadi.
3. Metodik ishlanmalarni takomillashtirish – pedagoglar tomonidan qo'llanilayotgan o'quv metodlari samaradorligi o'rganiladi va yangilanishi tavsiya etiladi.
4. Indikatorlar asosida baholash – bilim, ko'nikma, kompetensiya, ijtimoiy va psixologik rivojlanish darajasi aniqlanadi.
5. Rahbarlar qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash – direktor va o'rinbosarlar ta'lim jarayonini yaxshilash uchun aniq va asosli tavsiyalar oladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim jarayonining samaradorligini baholash va monitoring tizimi bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi. Tizimli monitoring, indikatorlarga asoslangan baholash va natijalarni tahlil qilish orqali direktorlar va o'rinbosarlar ta'lim sifatini oshirish, pedagogik jarayonlarni takomillashtirish va bolalarni keyingi ta'lim bosqichlariga puxta tayyorlash imkoniga ega bo'ladilar. Shu bois, maktabgacha ta'limda baholash va monitoring tizimini takomillashtirish doimiy e'tibor markazida bo'lishi lozim. O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha keng ko'lamdagi ishlarning amalga oshirilishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ilmiy va pedagogik tarkib tubdan o'zgarimoqda, zamonaviy o'quv-dasturiy asosga, moddiy-texnik bazaga ega bo'lgan ta'lim maskanlari sifatida bolalarni maktab ta'limiga sifatli va samarali faoliyatlar orqali tayyorlanmoqda. Pedagogik jarayon maqsadining asosiy obyektlari sifatida ta'lim muhiti, ta'lim oluvchilar faoliyati, pedagogik jamoa va bolalarning individual xususiyatlari ajralib turadi. Pedagogik jarayon amalga oshirish ta'lim muhitini shakllantirish, maktabgacha yoshidagi bolalar faoliyatini tashkil etish, pedagogik

jamoani yaratish, shaxsning individual xususiyatlarini rivojlantirish kabi ijtimoiy-pedagogik vazifalarni hal qilish bilan bog'liq bo'ladi. Pedagogik faoliyatning eng asosiy xususiyatlaridan biri uning birgalikdagi xususiyatidir. Bu esa pedagogni va u o'rgatgan, tarbiyalay-digan, rivojlantiradigan kishini o'z ichiga oladi. Ushbu faoliyat pedagogning o'zini o'zi anglashini va uning talabini o'zgartirishdagi maqsadli ishtirokinining tayyorgarlik, tarbiya, rivojlanish, ta'lim darajasini birlashtiradi. Jahon pedagogik fani va amaliyotida ta'limni tashkil etishning turli shakllari mavjud. Jamiyat rivojining har bir yangi bosqichi ta'limni tashkil etishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ayni vaqtda ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual-guruhli, auditoriyadan tashqari, MTT va MTTdan tashqari. Maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog xodimlaridan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat, kompetentlik va ijodkorlik talab etiladi. Maktabgacha ta'lim jarayonida insonparvarlik omilini ta'minlaydigan tarbiyachilarning shaxsiy sifatlariga quyidagilar kiradi: amimiylik, talabchanlik, haqqoniylik, halollik, mehribonlik, xushmuomalalik, kamtarlik va hokazo. Ushbu sifatlar tarbiyachining bolalar uchun ahamiyatini belgilashi kerak. Zero, shaxsiy sifatlar o'qitish va tarbiyalash mahoratiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy.

Monitoring tizimi va uning ahamiyati

Monitoring — bu ta'lim jarayonini, pedagog faoliyatini va bolalar rivojlanishini tizimli, doimiy va ilmiy asosda kuzatib borishdir. U quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

- **Pedagogik kuzatuv** – o'yin, mashg'ulot jarayonida bolaning tabiiy faoliyati asosida baholash.
- **Diagnostik topshiriqlar** – bolaning muayyan ko'nikmasini aniqlashga qaratilgan.
- **Suhbat** – bola bilan muloqot orqali dunyoqarash va tushunchalarni aniqlash.
- **Portfel (portfolio)** – bolaning yutuqlari va rivojlanish bosqichlarini aks ettiruvchi hujjatlar to'plami

Qadim zamonlarda mavjud bo'lgan oqitishning eng qadimgi shakli ta'limning individual shakli hisoblanadi. Hayotiy tajribalarni ajdodlardan-avlodlarga uzatish ibtidoiy jamiyatda yuzaga kelgan. Yozuv paydo bo'lishi bilan qavm boshlig'i turli belgilar yordamida o'zining tajribalarini yoshlarga o'rgatgan. pedagog va o'quvchining bevosita va individual aloqasiga misol sifatida repetitorlikni ko'rsatish mumkin. O'qishni tashkil etishning individual shakli antik davr va o'rta asrlarda yagona usul bo'lgan, undan ba'zi mamlakatlarda 19 asrgacha keng foydalanilib kelingan. Respublikasining mustaqillikka erishishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarining oldiga - yangi demokratik davlatning fuqarolarini shakllantirishdek muhim vazifani qo'ygan edi. Bu esa hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimida zamon

talabiga javob beradigan kadrlarni nazariy bilimlar bilan bir qatorda jahon andozalariga mos holatda tayyorlash, ularning malakasini oshirish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shu bilan bir qatorda maktabgacha ta'limni isloh qilishning asosiy shartlaridan biri – ma'naviy fazilatlarga ega, insoniy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan, yetuk kasb egasi sifatida faoliyat yuritayotgan mutaxassislar avlodini yetishtirishni talab qiladi. Individual ta'lim bir qator afzalliklarga ega, shuning uchun bu usuli bizning davrimizgacha repetitorlik shaklida saqlanib qolgan. Uning usutunligi o'quv faoliyati mazmuni, metodi va suratini to'la individuallashtirish, aniq bir masalani hal etishda uning har bir harakati va operatsiyalarini kuzatib borishga imkon berishidan iborat.

Individual-guruhli shaklining mazmuni mashg'ulotlarni tarbiyachilar bir bola bilan emas, balki tayyorlik darajasi turlicha bo'lgan teng yoshdagi bolalar guruhi bilan olib borishdan iborat edi. Pedagog navbat bilan har bir boladan o'tilgan materialni so'raydi, yangi savollarni tushuntiradi, mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlar beradi, qolgan bolalar o'z ishlari bilan shug'ullanadilar. Mashg'ulotlarni bunday tashkil etishda, bolalar mashg'ulotlarga yilning turli davrlarida hamda kunning turli vaqtlarida kelishlari mumkin bo'lgan. XX asr 20-yillarida maktab ishlari Ilmiy tekshirish instituti ta'limning loyihali tizimini targ'ib qila boshladi. Uni amerikalik U.Kilpatrik ishlab chiqqan. O'qitish bu tizimining mazmuni pedagog xodimlarning o'zlari loyiha ishlari mavzuni tanlab olishlaridan iborat. Hozirgi kunda MTTlarida faoliyatlar "Ilkqadam" davlat o'quv dasturi asosida olib boriladi. Bu o'rinda shuni aytish joizki, bolalar faoliyatida asosiy o'rinni o'yin tashkil etadi. Ya'ni har birtarbiyachi faoliyatlarni o'yin orqali tashkil etib, bolaga ta'lim –tarbiyaviy jarayonni tashkil etsa, bola mavzuni tez anglab oladi, hamda unda jamoa bo'lib ishlash, tengdoshlar bilan fikr almashish va ular bilan do'stona munosabatda bo'lish tuyg'ulari shakllanadi. Bu jarayonda tarbiyachining mahorati asosiy o'rin egallaydi. Chunki mashg'ulot paytida tarbiyachi bolaning nutqiga, xarakteriga, kayfiyatiga qarab bolalarga faoliyat materiallarini bo'lib berishi lozim. Bundan tashqari tarbiyachi bolalarni tabiat bilantaniishtirish, tabiat bilan hamkorlikda ishlash, mehnat tarbiyasiga o'rgatish va boshqa bir qator jihatlariga e'tibor qaratishi lozim. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida bolaning komil shaxs sifatida o'sib, kamol topishi, oila va MTTlarning hamkorlikda ish olib borilishi aytib o'tilgan. Bundan tashqari "Ilk qadam" o'quv dasturining 3-bobida bola rivojlanishida kompetensiyaviy yondashuv keltirilgan. Ya'ni kompetensiya bolaning bilim ko'nikma, malaka va qadriyatlar majmuidir. MTTlarda bolalar quyidagi kompetensiyalar bo'yicha shakllantiriladi:

Baholash va monitoring tizimini joriy etish — maktabgacha ta'limda sifatni oshirishning asosiy omillaridan biridir. Bu tizim pedagoglar uchun metodik yo'l-yo'riq, bolalar uchun esa shaxsiy yutuqlarini anglash vositasi bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar asosida monitoring olib borish esa samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Baholash va monitoring tizimi – bu oddiy hisob-kitob emas, balki har bir bolaning ichki dunyosini chuqur tushunish, uning ehtiyojlariga mos ta’limiy yo’l yaratish vositasidir. Ushbu tizim pedagog, ota-ona va bolaning birgalikdagi taraqqiyotini ifodalaydi. Ilg’or texnologiyalar va ilmiy asoslangan yondashuvlar esa bu tizimni yanada samarali qiladi.

Raqamli ta’lim resurslari yordamida mashg’ulotlarni tashkil etish jarayoni, bunda bolaning olayotgan bilimlarini na faqat eshitish, balki ko’rish sezgilari orqali ham qabul qilishlari va tushunchalarning g’oya va mazmunini chuqur anglab etishlariga samarali yordam beradi. Qator mualliflar tomonidan turli elektron o’qitish vositalari yordamida mavzularning yoritilishni joriy etib borilayotganligi, bunda bolalarning bilim saviyalarining oshib borayotganligini bevosita ishonch hosil qilish mumkinki, bu usullarning yanada takomillashtirilishi, yuqori pog’onaga olib chiqish kabi zaruratlar oldindan ko’rib, shu yo’sinda ta’lim va tarbiya jarayonini tashkil etish har bir rahbar hamda pedagogning dolzarb vazifasi bo’lishi talab etiladi.

Xulosa shuki: Maktabgacha ta’lim samaradorligini oshirish istiqbollari pedagogik salohiyatni yuksaltirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish va bola shaxsini markazga qo’ygan yondashuvlar asosidadir. Ta’limni modernizatsiya qilish orqali barkamol avlodni shakllantirish imkoniyati kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. V.Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o’quv dasturi T:2018.1-81-b;
2. F.Qodirova, SH.Toshpo’latova, M.A’zamova. "Maktabgacha pedagogika".- T., "Ma’naviyat".3.Sh.
3. A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.:2013
4. N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.:2013
5. Usmonov M. Interaktiv elektron o’quv kurslar — o’qitish faoliyatining yangi vositasi sifatida. // "Xalq ta’limi" jurnali, 2013, 5-son.
6. Xomidova, Dilorom Maktabgacha la’limda pedagogik jarayonlarni loyihalashtirish: o’quv qo’llan-ma / Dilorom Xomidova. - Namangan: "Usmon Nosir media" nashriyoti, 2023 - 280 b.